

## SOVET DAVRIDA YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARI FAOLIYATI TARIXI

<https://doi.org/10.70728/conf.edu.v3.i4.019>

*Xasanov Shaxzodbek Murod og'li*

*Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti talabasi*

*Vafayeva Jamila Bakiyevna*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
tarix fanlari nomzodi, professor.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Sovet davrida faoliyat yuritgan yoshlar jamoat tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Xususan, yoshlar siyosatini amalga oshirishda muhim o‘rin tutgan Komsomol va boshqa tashkilotlarning faoliyati, ularning jamiyatdagi roli hamda yosh avlodni mafkuraviy jihatdan tarbiyalashdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, mazkur tashkilotlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘rni tarixiy manbalar asosida o‘rganilib, ularning faoliyatiga baho berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Sovet davri, yoshlar tashkilotlari, Komsomol, yoshlar siyosati, jamoat tashkilotlari, mafkuraviy tarbiya, tarix

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются процессы формирования и развития молодежных общественных организаций в советский период. Особое внимание уделяется деятельности Комсомола и других молодежных организаций, их роли в общественной жизни и в идеологическом воспитании молодежи. Также анализируется их место в социально-политической системе того времени на основе исторических источников.

**Ключевые слова:** советский период, молодежные организации, комсомол, молодежная политика, общественные организации, идеологическое воспитание, история.

**Abstract:** This article analyzes the formation and development of youth public organizations during the Soviet period. Special attention is paid to the activities of the Komsomol and other youth organizations, their role in social life, and their importance in the ideological education of young people. The study also examines their place in the socio-political system of the time based on historical sources.

**Keywords:** Soviet period, youth organizations, Komsomol, youth policy, public organizations, ideological education, history.

Har bir jamiyat taraqqiyotida yoshlar muhim ijtimoiy qatlam hisoblanadi. Ularning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotdagi ishtiroki jamiyat rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois tarixning turli davrlarida yoshlar bilan ishlash, ularni muayyan g'oya

va maqsadlar atrofida birlashtirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelgan.

Sovet davrida yoshlar siyosati davlat mafkurasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralgan. Bu davrda yoshlarni kommunistik g‘oyalar ruhida tarbiyalash, ularni jamoat va ishlab chiqarish jarayonlariga faol jalb etish maqsadida turli yoshlar jamoat tashkilotlari tashkil etilgan. Ayniqsa, Butunittifoq Lenin Kommunistik Yoshlar Ittifoqi (Komsomol) sovet yoshlarining eng yirik tashkiloti sifatida faoliyat yuritib, yosh avlodni siyosiy-mafkuraviy jihatdan tarbiyalashda muhim rol o‘ynagan.

Mazkur tashkilotlar nafaqat siyosiy va mafkuraviy tarbiya bilan shug‘ullangan, balki yoshlarning ta‘lim olishi, mehnat faoliyatiga jalb etilishi hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta‘minlashga ham xizmat qilgan. Shu bilan birga, ular sovet jamiyatining ijtimoiy-siyosiy tizimida muhim o‘rin egallagan.

Bugungi kunda sovet davrida faoliyat yuritgan yoshlar jamoat tashkilotlari tarixini o‘rganish nafaqat tarixiy jarayonlarni chuqur anglash, balki yoshlar siyosatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Sovet davrida yoshlar jamoat tashkilotlarining tashkil topishi, rivojlanishi hamda ularning jamiyatdagi o‘rni tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

O‘zbekistonda yoshlar jamoat tashkilotlarining tizimli shakllanishi 1924-yildagi milliy-hududiy chegaralanishdan so‘ng yangi bosqichga chiqdi. 1925-yil 5-8-aprel kunlari Samarqandda o‘tkazilgan O‘zbekiston LKYSMning I ta‘sis syezdi respublikada yoshlar siyosatining markazlashgan poydevorini qo‘ydi. Ushbu syezdda respublika komsomol tashkilotining rahbar organlari saylandi va uning partiya iyerarxiyasidagi o‘rni qat‘iy belgilab berildi<sup>39</sup>.

Tadqiqotchi Z.R. Ishanxodjayeva ta‘kidlaganidek, sovet hokimiyati uchun ta‘lim va madaniyat tizimi "sinfiy dushman"ga qarshi kurash maydoniga aylantirildi. Bu maydonda yoshlar tashkilotlari shunchaki ijtimoiy birlashma emas, balki yosh avlodni bolalikdanoq "sovet standarti" asosida shakllantiruvchi mafkuraviy konveyer vazifasini o‘tadi<sup>40</sup>. Tizim qat‘iy iyerarxik tartibda, "oktyabryat – pioner – komsomol" zanjiri asosida qurildi. Bu zanjirning har bir bo‘g‘ini yoshlarning ma‘naviy va ijtimoiy dunyoqarashini bosqichma-bosqich davlat mafkurasiga bo‘ysundirishga xizmat qildi.

1. **Oktyabryatlar (7–9 yosh):** Maktabning quyi sinf o‘quvchilari orasida "Lenin nabiralari" maqomi ostida dastlabki jamoaviylik ko‘nikmalarini shakllantirish bosqichi. Oktyabryat guruhlarini 1920-yillarning o‘rtalaridan boshlab O‘zbekiston maktablarida jadal tashkil etila boshlandi. Arxiv hujjatlariga ko‘ra, oktyabryatlar beshliklarga (zvyozdochka) bo‘linib, ularga yuqori sinf pionerlari rahbarlik qilgan.

<sup>39</sup> Ўзбекистон комсомоли тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1968. – Б. 24-28.

<sup>40</sup> Ишанходжаева З.Р. Репрессивная политика советской власти и культура Узбекистана: трагедия выживания (1925-1953 гг.). – Ташкент: «Tafakkur», 2011. – С. 45-48.

Bu bosqichda bolalarga "Lenin bobo" siymosi orqali sodiqlik va itoatkorlik tuygʻulari singdirilgan<sup>41</sup>.

2. **Pionerlar (10–14 yosh):** Harbiy-vatanparvarlik va "sinfiy kurash" ruhidagi tarbiyaning asosiy boʻgʻini. Oʻzbekistonda pioner otryadlari nafaqat maktablarda, balki "Qizil choyxonalar" va klublar qoshida ham faoliyat yuritgan. 1925-1930-yillar oraligʻida Buxoro viloyatida pionerlar sonining keskin ortishi oʻlkaning umumiy mafkuraviy iqlimiga sezilarli taʼsir koʻrsatdi. T. Rahmonovning taʼkidlashicha, pionerlar diniy marosimlarga qarshi kurashda, savodsizlikni tugatish va qishloqlarda sovet targʻibotini olib borishda komsomolning asosiy koʻmakchisi boʻlgan<sup>42</sup>.
3. **Komsomol (14–28 yosh):** Kommunistik partiyaning bevosita zaxirasi va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning asosiy ijrochisi. Oʻzbekiston komsomoli oʻzining tashkiliy tuzilmasiga koʻra Markaziy Qoʻmita (MK), viloyat, tuman qoʻmitalari va boshlangʻich yacheykalardan iborat edi. Arxiv materiallari (OʻzMA, R-837 fondi) shuni koʻrsatadiki, komsomol safiga qabul qilingan har bir nomzodning "ijtimoiy tozaligi" OGPU bilan hamkorlikda qatʼiy nazorat qilingan. P.A. Merkulov yozganidek, komsomol 1920-yillarda yoshlar muhitida barcha muqobil (milliy, diniy, sotsialistik boʻlmagan) uyushmalarni siqib chiqarib, tizimda mutlaq monopoliyani oʻrnatdi<sup>43</sup>.

Bizning nuqtai nazarimizcha, ushbu iyerarxik tuzilmaning barpo etilishi yoshlarni mustaqil fikrlovchi subyektdan davlatning iqtisodiy va siyosiy rejalarini (paxta yakkahokimligi, "Xujum" harakati, kollektivlashtirish) soʻzsiz bajaruvchi "jonli resurs"ga aylantirish imkonini berdi. Tashkiliy tuzilmaning harbiy intizomga yaqinligi esa har qanday ommaviy safarbarlikni qisqa muddatda amalga oshirishga xizmat qildi.

Yoshlar tashkilotlari faoliyatida "sinfiy tozalik" tamoyili ustuvor boʻlib, u jamiyatni qatʼiy tabaqalashning asosiy vositasiga aylandi. Arxiv fondlari, xususan, Oʻzbekiston Milliy arxivi (OʻzMA) maʼlumotlari shuni tasdiqlaydiki, komsomol safiga qabul qilinayotgan har bir nomzodning ijtimoiy kelib chiqishi maxsus komissiyalar tomonidan oʻta sinchkovlik bilan tekshirilgan. Ruhoniylar, boy-badavlat dehqonlar ("quloqlar") va sobiq amirlik amaldorlarining farzandlari "begona elementlar" (чуждый элемент) sifatida tasniflanib, tizimdan chetlatilgan yoki umuman qabul qilinmagan<sup>44</sup>. Ushbu "tozalash" ishlari komsomolning nafaqat mafkuraviy, balki repressiv funksiyasini ham belgilab bergan.

<sup>41</sup> Всесоюзная пионерская организация имени В. И. Ленина: Документы и материалы. – М.: Молодая гвардия, 1981. – С. 112.

<sup>42</sup> Рахманов Т. Из истории культурного строительства в Бухаре (1925-1932 годы) // Общественные науки в Узбекистане. – 1961. – № 4. – С. 36.

<sup>43</sup> Меркулов П.А. Комсомол в системе молодежных общественных организаций 1920-х гг. // Вестник РУДН. Серия: История России. – 2017. – Т. 16. – № 1. – С. 52.

<sup>44</sup> Ўзбекистон Миллий архиви (OʻzMA), P-837-фонд, 3-рўйхат, 523-иш, 13-варак.

P.A. Merkulovning tadqiqotlariga ko'ra, komsomol o'zining unitar monopoliyasini o'rnatish jarayonida jazolash organlari (OGPU/NKVD) bilan institutsional darajada hamkorlik qilgan. Bu hamkorlik yoshlar orasida "mafkuraviy dushman"larni, ya'ni sovet tuzumiga shubha bilan qarovchi yoki milliy istiqlol g'oyasini qo'llovchi shaxslarni aniqlash va ularni ma'muriy hamda jismoniy bartaraf etishda asosiy mexanizm bo'lib xizmat qildi<sup>45</sup>. Komsomol yoshlar orasida "ko'z va quloq" vazifasini o'tab, har bir shubhali harakat haqida tegishli organlarga ma'lumot berib turuvchi tizimga aylandi.

O'zbekistonda bu jarayon "Xujum" harakati (xotin-qizlar ozodligi kampaniyasi) kabi madaniy kampaniyalarda yaqqol namoyon bo'ldi. Z.R. Ishanxodjayeva qayd etganidek, komsomol faollari bu jarayonda "zarbdor kuch" sifatida foydalanildi. Ular nafaqat targ'ibotchi, balki milliy qadriyatlar, asriy an'analar va diniy e'tiqodga qarshi kurashuvchi repressiv apparatning bevosita bo'lagiga aylandi<sup>46</sup>. Bu kampaniyalar davomida komsomol yoshlari o'z oilalari, mahalla va urug'-aymoqchilik aloqalariga qarshi qo'yildi, bu esa jamiyatning an'anaviy ijtimoiy tuzilishini parchalashga qaratilgan edi.

Bundan tashqari, komsomolning mafkuraviy nazorati ta'lim muassasalarida ham o'rnatildi. "Qizil burchaklar" va komsomol yacheykalari orqali talaba-yoshlarning shaxsiy hayoti, o'qishdan tashqari faoliyati va hatto kiyinish madaniyati ham qat'iy nazorat qilindi. Bu davrda "siyosiy hushyorlik" tushunchasi komsomol a'zosining asosiy fazilati sifatida talqin etilib, u o'z safdoshlari ustidan nazorat va ijborchilikni ham nazarda tutgan edi<sup>47</sup>.

Sovet hokimiyati komsomol va pioner tashkilotlari orqali yoshlar ongini totalitar mafkura qolpiga soldi. Bu jarayonda shaxs erkinligi "sinfiy manfaat" va "partiya intizomi" kabi mavhum tushunchalarga qurbon qilindi. Tashkiliy tuzilmaning bunday shakllantirilishi yoshlarni davlatning har qanday repressiv va iqtisodiy rejalarini (kollektivlashtirish, diniy ulamolarni ta'qib qilish) so'zsiz bajaruvchi, o'z milliy ildizlaridan uzilgan "manqurt" qatlam sifatida shakllantirishga qaratilgan edi<sup>48</sup>.

Yoshlar tashkilotlari nafaqat mafkuraviy tarbiya maskani, balki sovet davlatining iqtisodiy va ijtimoiy loyihalarini amalga oshiruvchi asosiy safarbarlik kuchi vazifasini ham bajardi. Bu jarayonda yoshlarning faoliyati ta'lim, qishloq xo'jaligi va sanoatlashtirish kabi strategik sohalarda yaqqol namoyon bo'ldi.

1920-1930-yillarda O'zbekistonda savodsizlikka qarshi kurash ("likbez") harakatining muvaffaqiyati bevosita komsomol va pioner tashkilotlari faoliyati bilan bog'liq edi. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, birgina 1928-1932-yillar davomida respublikada savodsizlikni

<sup>45</sup> Меркулов П.А. Комсомол в системе молодежных общественных организаций 1920-х гг. // Вестник РУДН. Серия: История России. – 2017. – Т. 16. – № 1. – С. 54-55.

<sup>46</sup> Ишанходжаева З.Р. Репрессивная политика советской власти и культура Узбекистана: трагедия выживания (1925-1953 гг.). – Ташкент: «Tafakkur», 2011. – С. 52-54.

<sup>47</sup> Тиловатов Ф.У. Совет ҳокимиятининг XX асрнинг 20-30 йилларида "маданий инқилоб" сиёсати ва унинг Ўзбекистонда амалга оширилиши: Автореф. дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 21.

<sup>48</sup> Цветлюк Л.С. Политический контроль в молодежной среде. 1920-1930-е годы. — Москва, 2001. — С. 88.

tugatish punktlarida (likpunkt) faoliyat yuritgan o'qituvchilarning 70 foizdan ortig'ini komsomol a'zolari tashkil etgan<sup>49</sup>. "Madaniy yurish" (kultpoxod) kampaniyalari doirasida yoshlar qishloqlarga borib, nafaqat o'qish-yozishni o'rgatgan, balki sovet turmush tarzini targ'ib qiluvchi "madaniy kuch" sifatida xizmat qilgan.

O'zSSR iqtisodiyotining asosi bo'lgan paxtachilik sohasida yoshlar tashkilotlari "paxta uchun kurash"ning zarbdor kuchiga aylantirildi. 1930-yillarning boshidan boshlab, komsomol yacheykalari kolxozlarda "yoshlar brigadalari"ni tashkil etib, paxta ekish va yig'im-terim ishlarida majburiy-ixtiyoriy ravishda ishtirok etgan. N. Rahmonovning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, Buxoro vohasida tashkil etilgan "Qizil choyxonalar" yoshlarni kollektivlashtirish jarayoniga jalb qilish va paxta rejalarini so'zsiz bajarish bo'yicha safarbarlik markazlari bo'lib xizmat qilgan<sup>50</sup>. Arxiv hujjatlari (O'zMA, R-837 fondi) tasdiqlashicha, paxta rejasini bajarmagan yoshlar "sinfiy dushman yordamchisi" sifatida ayblangan va qat'iy jazolangan.

Sanoatlashtirish davrida yoshlar "sotsialistik qurilishlar"ga ommaviy jalb etildi. Xususan, Chirchiq elektr-kimyoo kombinati qurilishi, Katta Farg'ona kanali kabi ulkan ob'ektlarda yoshlar mehnati "jonli resurs" sifatida foydalanildi. Katta Farg'ona kanali qurilishida (1939-yil) qatnashgan 160 ming hasharchining katta qismini yoshlar tashkil etgan bo'lib, ularning mehnati komsomol tomonidan "qahramonlik" sifatida talqin etilgan bo'lsa-da, aslida bu og'ir jismoniy mehnatdan unumli foydalanishning bir usuli edi<sup>51</sup>.

1920-yillarning o'rtalaridan boshlab O'zbekistonda keng tarqalgan "Qizil choyxonalar", klublar va kutubxonalar yoshlarni an'anaviy milliy va diniy muhitdan ajratib, sovet mafkurasiga moslashtirish vazifasini bajardi. Bu maskanlarda "eskilik sarqitlari"ga qarshi kurashuvchi yoshlar teatrlari va targ'ibot guruhlarini tuzildi. Tadqiqotchi Z.R. Ishanxodjayevaning xulosasiga ko'ra, bu muassasalar orqali yoshlarning bo'sh vaqti ham to'liq davlat nazoratiga olingan va ularning ijtimoiy faolligi faqat partiya manfaatlariga yo'naltirilgan<sup>52</sup>.

Bizning nuqtai nazarimizcha, sovet davrida yoshlar tashkilotlari ta'lim va iqtisodiy yuksalish shiori ostida, aslida, O'zSSR iqtisodiy resurslarini va inson kapitalini sovet rejimining strategik maqsadlariga yo'naltiruvchi mexanizm bo'lib xizmat qildi.

Sovet davridagi yoshlar jamoat tashkilotlari faoliyatini tarixiy va tanqidiy nuqtai nazardan baholar ekanmiz, quyidagi yakuniy xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, komsomol va pioner tashkilotlari sovet totalitar rejimining yoshlar ustidan mutlaq nazoratini ta'minlovchi siyosiy institut edi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi

<sup>49</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб: Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарк, 2000. – Б. 342.

<sup>50</sup> Рахманов Н. Из истории культурного строительства в Бухаре (1925-1932 годы) // Общественные науки в Узбекистане. – 1961. – № 4. – С. 34-39.

<sup>51</sup> Очерки истории Комсомола Узбекистана. – Ташкент: Ёш гвардия, 1977. – С. 156-158

<sup>52</sup> Ишанходжаева З.Р. Репрессивная политика советской власти и культура Узбекистана: трагедия выживания (1925-1953 гг.). – Ташкент: «Tafakkur», 2011. – С. 60-63.

Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, sovet mafkurasi yoshlarni o'z milliy ildizlaridan uzib, ularni "manqurt" holatiga keltirishni maqsad qilgan edi. U kishi "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch" asarida yoshlar ongini begona g'oyalar bilan to'ldirish orqali ularni o'z xalqining tarixiga qarshi qo'yish sovet siyosatining eng xavfli jihati bo'lganini qayd etgan<sup>53</sup>.

Ikkinchidan, ushbu tashkilotlar milliy o'zlikni inkor etish va yoshlarni sun'iy "sovet kishisi" andozasiga solish orqali xalqning tarixiy xotirasiga tiklab bo'lmas zarar yetkazdi. "Xujum" harakati va boshqa madaniy kampaniyalar davomida komsomol faollari asriy an'analarni parchalashda repressiv apparatning quroli bo'lib xizmat qildi. Bizning tahlillarimizga ko'ra, bu jarayon yosh avlodni milliy g'ururdan mahrum etishga qaratilgan uzoq muddatli strategiya edi.

Uchinchidan, tashkilotlarning harbiy intizomga asoslangan tuzilmasi yoshlar mehnatidan davlatning iqtisodiy maqsadlari yo'lida "jonli resurs" sifatida foydalanish imkonini berdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev bugungi kunda yoshlar siyosatiga yondashar ekan, sovet davridagi majburiy mehnat va bir tomonlama mafkuraviy tarbiya usullaridan voz kechish, yoshlarni zamonaviy ilm-fan va milliy qadriyatlar asosida mustaqil fikrlovchi shaxs qilib tarbiyalash zarurligini alohida ta'kidlamoqda. Davlatimiz rahbari qayd etganidek: "Biz yoshlarimizni nafaqat bilimli, balki mustaqil fikrlaydigan, o'z Vatanining haqiqiy egasi bo'ladigan insonlar etib tarbiyalashimiz shart"<sup>54</sup>. Bu sovet davridagi "itoatkor ijrochi" modeliga tamoman zid bo'lgan demokratik yondashuvdir.

Xulosa qilib aytganda, sovet davri yoshlar harakati o'zining tashkiliy yutuqlari va ommaviyligiga qaramay, mohiyatiga ko'ra shaxs erkinligini cheklovchi, milliy manfaatlarni va inson kapitalini totalitar mafkuraga qurbon qiluvchi repressiv tizimning ajralmas qismi bo'lib qoldi. Mustaqillik yillarida ushbu tarixiy tajribaning tanqidiy o'rganilishi bugungi yangi O'zbekiston yoshlar siyosatini to'g'ri shakllantirishda, ularni yot g'oyalar xurujidan asrashda va milliy o'zlikni mustahkamlashda muhim saboq bo'lib xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
4. O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA), R-837-fond, 3-ro'yxat, 523-ish.
5. O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA), R-34-fond, 1-ro'yxat, 124-ish.
6. Ленин В.И. Задачи союзов молодежи. – Ташкент: Узпартиздат, 1951. – 48 с.

<sup>53</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 42-45.

<sup>54</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 182-184.

7. Ishanxodjayeva Z.R. Repressivnaya politika sovetskoy vlasti i kultura Uzbekistana: tragediya vijivaniya (1925-1953 gg.). – Tashkent: Tafakkur, 2011. – 396 s.
8. Merkulov P.A. Komsomol v sisteme molodejnix obshchestvennix organizatsiy 1920-x gg. // Vestnik RUDN. Seriya: Istoriya Rossii. – 2017. – T. 16. – № 1. – S. 49-58.
9. Rahmonov T. Iz istorii kulturnogo stroitelstva v Buxare (1925-1932 godi) // Obshchestvennie nauki v Uzbekistane. – 1961. – № 4. – S. 34-39.
10. Tilovatov F.U. Sovet hokimiyatining XX asrning 20-30 yillarida “madaniy inqilob” siyosati va uning O‘zbekistonda amalga oshirilishi: Avtoref. diss. – Toshkent, 2009. – 26 b.
11. O‘zbekiston komsomoli tarixidan lavhalar. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1968. – 254 b.
12. Ocherki istorii Komsomola Uzbekistana. – Tashkent: Yosh gvardiya, 1977. – 312 s.
13. Vsesoyuznaya pionerskaya organizatsiya imeni V. I. Lenina: Dokumenti i materialy. – M.: Molodaya gvardiya, 1981. – 324 s.
14. O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob: O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – 688 b.
15. Tsvetlyuk L.S. Politicheskij kontrol v molodejnoj srede. 1920-1930-e godi. – Moskva, 2001. – 142 s.

